



# “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 26-iyul

## “NKMK” AJ faoliyatining 2023-yil I yarim yillikdagi yakunlari to‘g‘risida

2023-yil 26-iyul kuni “NKMK” AJning matbuot anjumanlarini o‘tkazish zalida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2023-yil I yarim yillikdagi yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.

Matbuot anjumanida bosh direktorning iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Shuhrat Aminov, Byudjetlashtirish va kontrolling bo‘limi boshlig‘i Umidjon Kostayev, Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ respublikamizning eng yirik sanoat korxonasi bo‘lib, zamonaviy konchilik asbob-uskunalari va texnologiyalar bilan jihozlangan, malakali muhandis, mutaxassis kadrlarga ega. Korxonaning ko‘pming kishilik jamoasi shu yilning birinchi yarim yilligida ham belgilangan rejalar ni ortig‘i bilan bajarishga erishdi. Xususan, o‘tgan yarim yillikda kombinatda 31,5 trln so‘mdan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida oltin ishlab chiqarish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichi to‘liq bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi.

Bugungi kunda kombinat mamlakatimizdagi eng yirik soliq to‘lovchi hisoblanadi. Birgina, shu yilning o‘tgan yanvar-iyun oylarida 14,1 trln so‘mlik byudjetga to‘lovlar amalga oshirilib, prognoz ko‘rsatkich 104 foizga bajarildi.

Kombinat faoliyatida Investitsion dastur alohida o‘rin tutadi. Buning hisobiga ko‘plab yangi loyihamalar ishga tushirilmoqda. O‘tgan olti oyda ushbu dasturga kirgan loyihamalar bo‘yicha 255 mln dollarlik mablag‘ o‘zlashtirilib, 868 ta yangi ish o‘rnlari yaratildi.

Korxonada yildan-yilga mahalliylashtirish dasturi ham bajarilayapti. Jumladan, mazkur dasturdagi 154 ta loyiha doirasida 324 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida 2,5 trln soʻmdan ortiq mahsulot xarid qilindi.

Xarajatlarni maqbullashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot tannarxini 594,2 mlrd soʻmga kamaytirish imkonini berdi.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroficha javoblar berildi.

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati** – yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati! Kombinatda olib borilayotgan keng koʻlamli amaliy ishlar natijada ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligini oshirish hamda mahsulot tannarhini pasaytirishga xizmat qiladi.

#### **Murojaat uchun maʼlumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[www.t.me/ngmkofficial](http://www.t.me/ngmkofficial)

[www.fb.com/nkmkofficial](http://www.fb.com/nkmkofficial)

[www.instagram.com/nkmk.official](http://www.instagram.com/nkmk.official)

[www.youtube.com/nkmkofficial](http://www.youtube.com/nkmkofficial)

[www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/](http://www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/)

[www.twitter.com/jsc\\_nmmc](http://www.twitter.com/jsc_nmmc)

#### **Maʼlumot uchun:**

“NKMK” AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar toʼrttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha boʻlgan ishlab chiqarish jarayonlari toʼliq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilgʼor texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. “NKMK” AJning “999,9” soqlikdagi oltin quymalari jahoning qimmatbaho metallar boʻyicha birjalarida Oʼzbekistonning brendiga aylandi.